

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“AXBOROTSHUNOSLIK”

fanining o'quv dasturi(sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230700 – Amaliy filologiya

Toshkent-2023

2

Fan/modul kodi 302ASH14	Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024				Jami yuklama (soat)			
			O'quv mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)					
Semestr	Har bir semestrdaagi modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari		amaliy	laboratoriya	Jami yuklama (soat)			
			Jami:	ma'ruza				seminar		
6	Axborotshunoslik	4	4	4	10	20	30	0	60	120
Jami:		4	4	4	10	20	30	0	60	120

1. FANNING MAZMUNI

"Axborotshunoslik" fani talabalarga axborot va uning turlari, axborotlar bilan ishlash, media makon axborotlari saralash, tuzilish, efirga uzatish, virtual tarmoq xabarlari, OAV xabarlari, bosma nashrlar, axborotning boshqa istalgan ko'rinishlari bilan ishlash bilan tanishtirishdan iborat.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni axborotlar bilan ishlash media makon kontentini yaratish, OAV bilan ishlash, axborot turlari bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, lingvistik ekspertlogiya tarkibida axborotshunoslik nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga axborotshunoslik fanining ahamiyati, qo'lyozma matnlarida belgilar, umumiy va xususiy belgilar o'ziga xosligi va uslubiyatining nazariy asoslariga oid bilim va tushunchalar berish, axborotshunoslikning lingvistik ekspertlogiyaga munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda ikki qo'lyozma ko'rinishidagi yozuvlarda o'zaro taqqoslash, aynan yoki o'xshash, farqli ekanligini asoslashga munosabati kabilarini bilish, grammatik qoidalarga tayanib, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganishlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIVALAR

– Axborotshunoslik va eksperimental tadqiqotlarda metodik tayyorgarlik asoslaridan xabardor bo'lish, axborotshunoslik bilan bog'liq nazariy va eksperimental bilimlarga ega bo'lish, axborotlarni izlash, saqlash tizimlashitira olish;

– Turli qo'l yozuvi namunalarini tahlil qila olish, yozuvning identifikatsion belgilarini aniqlay olish;

– Axborot yaratish, ishlav berish, qayta ishlash, axborotshunoslik bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha original ilmiy ishlarni tahlil qila olish, axborotning mavzuviy xoslanishini baholay olish;

– axborotlarni saralay olish, ularga matnli va grafik ishlav berish, AKT bilan ishlay olish malakalariga ega bo'lishi zarur.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

"Axborotshunoslik" fanini o'qitishda interfaol metodlar, xususan, nutq bilan ishlash, so'rovnomma, anketa, lingvistik tahlil, psixolingvistik analiz, matnning psixologik tahlili, og'zaki so'rov, yozma va og'zaki nutqni o'stirish, analiz, sintez, statistik, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, axborotshunoslik malakalarni rivojlantirishga qaratilgan boshqa metod va usullardan foydalaniladi.

4. TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" Nizomining 15- va 30-bandlariga asosan Axborotshunoslik fanidan 120 soat (5-semestrda 120) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijodiy baholani kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada baholash talabaga 4 (5-semestrda 4) kredit beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: 2 ta.

1-oraliq nazorat og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Axborotshunoslik fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga og'zaki javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savollariga talaba og'zaki javob beradi, Variant savolnoma savollari axborotshunoslik mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 10 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Og'zaki nazoratni baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

2-oraliq nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Axborotshunoslik fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savollariga talaba yozma javob beradi, Variant savolnoma savollari axborotshunoslik mavzulariga tegishli mambalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 10 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma nazoratni baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi. Testni baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 28-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 24-27 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-23 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat: Axborotshunoslik fani bo'yicha har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Talabaga login va parol orqali tizimga kirish imkoniyati yaratiladi. Test topshiriqlari savollari axborotshunoslik mavzulariga tegishli mambalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 1 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 28-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 24-27 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-23 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarining o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarining bilimini baholash mezonlari:

5 baho. Talaba axborotshunoslikka oid bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirgan, axborot birliklarini tizimlashtira oladi va axborotshunoslikka oid bilimlarini nazariy

jihatdan aniq va mantiqiy bayon qila oladi. Amaliy jihatdan axborotshunoslik ko'nikmalarini to'g'ri qo'llay oladi, axborotshunoslik bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bera oladi. Shuningdek, axborotshunoslikka oid qiyin masalalarga yechim topa oladi, axborotshunoslik bo'yicha ilmiy terminologiyani erkin ishlata oladi.

4 baho. Talaba axborotshunoslikka oid bilimlarni o'zlashtirgan, axborotshunoslik birliklarini tizimlashtira oladi va axborotshunoslikka oid bilimlarini bayon qila oladi. Amaliy jihatdan axborotshunoslik ko'nikmalarini qo'llay oladi, axborotshunoslik bo'yicha savollarga javob bera oladi. Shuningdek, axborotshunoslikka oid murakkab bo'lmagan masalalarga yechim topa oladi, axborotshunoslik bo'yicha ilmiy terminologiyani qisman ishlata oladi.

3 baho. Talaba axborotshunoslik bilimlarni sayoz o'zlashtirgan, axborotshunoslik tushunchalarini tizimlashtirishda, axborotshunoslikka oid bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan bog'lashda, axborotshunoslikka oid masalalarni hal qilishda qiyinlashadi, axborotshunoslik bo'yicha ilmiy terminologiyani to'g'ri qo'llay olmaydi.

2 baho. Talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

6-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Sonlar hajmi
1	Mediamakon. Axborot va ma'lumot tushunchasi. Axborotlarning turlari	Axborotshunoslik, axborotshunoslik obyekti, axborotshunoslik predmeti, axborotshunoslikning maqsadi va vazifalari, axborotshunoslikning fanlar tizimidagi o'rni.	2
2	Ommaviy axborot vositalarida axborot uzatishshakli va turlari	Dunyo tilshunosligi, dunyo tilshunosligida amaliy psixolingvistik tadqiqotlar, dunyo tilshunosligida psixolingvistik izlanishlar	2
3	Virtual tarmoqda axborot uzatishshakli va turlari	Axborotshunoslik, axborotshunoslikda nutqiy faoliyat tadqiqi,	2

	axborotshunoslikda faoliyat turi, fikr ifodalash modellari.	nutqiy	2
4	Bosma nashrlarda axborot uzatish shakli, uzatish shakli va turlari	nutqiy tushunish, Nutqni yaratish. Nutq yaratishi va idrok etilishidagi individual farqlar.	2
5	Axborotlarni uzatish shakli, mediakontent	Axborotshunoslik, Psixolingvistika, Patopsixolingvistika, Etnopsixolingvistika.	2
		Jami:	10 st.

2. Amaliy mashg'ulot mavzulari

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Axborot va matn	Matn, axborot, dizayn	2
2	Axborot va uning turlari	Matn, axborot, dizayn	2
3	AKT, AKT bilan ishlash, media savodxonlik	Axborot texnologiyalari, AKT	2
4	Axborot manbalari va axborot tarqatuvchilar	OAV, ijtimoiy tarmoq, blogosfera	2
5	Axborot dizayni, veb-dizaynerlik	Imzolar bo'yicha ekspertizalar tasnifi	2
6	Axborot homiylik, imidj, branding masalalari	Axborotni uzatishga homiylik, axborot imidji	2
7	Axborotlarni izlash, web dasturlar bilan ishlash	Qidiruv tizimlari	2
8	Axborotlarni vizuallashtirish vositalari	AKT, vial dasturlar	2
9	Axborot faoliyatini muvofiqlashtiruvchi xalqaro huquq me'yorlari va qonuniy asoslari	Qonuniy asos, huquqiy manba	2
10	OAV etiketi, OAVda axborotlar bilan ishlash	OAV, telekommunikatsiya, notiqlik, etiket	2
11	Bosma nashrlarda axborotlar bilan ishlash	Gazeta, jurnal	2
	Virtual tarmoqlarda axborot bilan ishlash	Ijtimoiy tarmoq, saytlar, mediamakon	2
12	Ijtimoiy tarmoq va blogosfera axborotlari tahlili	Blogger, mikro-blog, blog-post, blogosfera	2

13	Blogosfera bilan kommunikatsiya xususiyatlar	Blogger, mikro-blog, blog-post, blogosfera	2
14	Kommunikatsion audit va marketing	Kommunikatsiya sohasidagi axborot oqimlari, kanallari va vositalari	2
15	Yashirin axborot		2
		Jami:	30 st.

2. Seminar mashg'ulotlar

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Axborot shakllari, uzatish turlari, axborot uzatishning shakllanish tarixi	Raqamli axborot., axborot va matn, grafika	4
2	Axborot va dizayn muvofiqligi	Vizualizatsiya, grafika, imidj, branding	4
3	OAV kontenti, axborotlar tahlili	OAV, telekommunikatsiya, radio, TV	4
4	Axborotlarni izlash, yaratish va uzatish asoslari	AKT, web dasturlar, Web qidiruv, saytlar bilan ishlash, axborot xabvifsizligi	4
5	Virtual tarmoq axborotlari va blogosfera kontenti tahlili	Blogger, mikro-blog, blog-post, blogosfera	4
		Jami:	20 st.

3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar"ning asosiy maqsadi - o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan tadqiqot ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- axborotshunoslik tadqiqot tarixi materiallari bilan mustaqil ravishda tanishish, ularni konspektlashirish;
 - amaliy psixolingvistik ko'nikmalarni shakllantirish;
 - amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
 - muayyan mavzu bo'yicha tezis yoki maqola tayyorlash;
 - amaliy mavzular bo'yicha ijodiy ishlash;
 - belgilangan mavzular bo'yicha taqdimot tayyorlash.
- Taqdimotlar seminar mashg'ulotlarida muhokama qilinadi va baholanadi.

